

3rd MAY

2024



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo OpenAIRE



digital
object
identifier

OPEN  ACCESS

NETHERLANDS

INTELLECTUAL EDUCATION
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS
AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS



info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

International scientific-online conference

Part 27

MAY 3rd

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

AMSTERDAM 2024



<i>ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИ ВА ЭРИШИЛГАН ИСТИҚБОЛЛИ НАТИЖАЛАР</i>	
Sharapova Nigina Kadirovna Botirov Bahridin <i>BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: YANADA MUSTAHKAM MOLIYAVIY SEKTOR UCHUN STRATEGIYALAR</i>	152
Rakhmonov SHukhrat <i>IMPROVING THE BANKING SYSTEM: STRATEGIES FOR A STRONGER FINANCIAL SECTOR</i>	160
Niyozova I.N. <i>BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI VA UNING AMAL QILISHI</i>	167
Niyozova I.N. Sattorova Mohiya <i>INFLATSIYANING MOHIYATI VA KELIB CHIQISH SABABLARI</i>	175
Nigina Sharapova Kadirovna Sharipov Shaxzod <i>KRIPTOVALYUTA - AN'ANAVIY BANK TIZIMIGA VA IQTISODIYOTGA TA'SIRI.</i>	182
Ro'zimurodova Zarina Temirov Muxammadali <i>O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI</i>	186
Toirova Masuma Muhammedrizaevna Shamsiddinov Zafar <i>KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETINGNING AHAMIYATI</i>	193
Umarova Hulkar Umidulloyevna <i>KORXONADA BANKROTLIK RISKLARINI BAHOLASHDA ULARNI TUZILISHI VA TURLARI, KELIB CHIQISH SABABLARI TAHLILI</i>	199
M.Po'latova <i>IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISH KO'RSATKICHLARI VA ULARNI XAVO NAMLIGA TA'SIRI.</i>	203
Yoqubov Bobur Mamasobir o'g'li . Boymurodov Iskandar Amirqul o'g'li . Eshqurbonov Abdumurod Abdujalil o'g'li . Norqobilov Saydulla Soatmurod o'g'li . <i>TEXNALOGIK JARAYONLARNI MODELASHTIRISHDA</i>	207



21. Usmanova, A. B. (2022). Sport Tourism As A Sport And Form Of Activity. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(1), 212-214.

22. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 15(15).

23. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 33(33).

24. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(1), 207-211. 22. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 12(12).

25. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.

BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI VA UNING AMAL QILISHI

*Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o'qıtuvchısı*

Nıyozova I.N.

*Samatova Marjona Shokırbek qızı
Buxoro Davlat Universiteti
Iqtisodiyot va Turizm fakulteti talabası*

Annotatsiya. Maqolada budjet-soliq siyosatining mohiyati, usullari, hamda davlat xarajatlari, soliqlar va balanslashgan budjet multiplikatorlar, diskret va nodiskret byudjet-soliq siyosati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: byudjet – soliqlar siyosati, davlat xarajatlari, balanslashgan byudjet mul'tiplikatori, davlat byudjeti, rag'batlantuvchi fiskal siyosat.

Annotation. Budget-tax policy refers to measures that include changes in government expenditures and taxes aimed at ensuring full employment, balance of payments and economic growth in the economy under conditions of non-inflationary GDP production. The article analyzes the nature and methods of budget-tax policy, as well as state expenditures, tax and balanced budget multipliers, discrete and non-discrete budget-tax policy.

Key words: budget - tax policy, state expenditures, balanced budget multiplier, state budget, stimulus fiscal policy.

Аннотация. Бюджетно-налоговая политика – это меры, включающие изменение государственных расходов и налогов, направленные на обеспечение полной занятости, платежного баланса и экономического роста в экономике в условиях неинфляционного производства ВВП. В статье анализируются сущность и методы бюджетно-налоговой политики, а также государственные расходы, налоговые и сбалансированно-бюджетные мультипликаторы, дискретная и недискретная бюджетно-налоговая политика.

Ключевые слова: бюджетно-налоговая политика, государственные расходы, мультипликатор сбалансированного бюджета, государственный бюджет, политика бюджетного стимулирования.

So'nggi yillarda mamlakatimiz hukumati bozor munosabatlari asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng

muhimlaridan biri - davlatning izchil budget-soliq siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat budget-soliq siyosatini olib borish va iqtisodni tartibga solish muammolariga alohida e'tibor beriladi.

Eng umumiy va soddada tarzda byudjet-soliq siyosati bir tomondan, byudjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish va ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarini samarali sarflash bilan bogliq. Aslida byudjet siyosati tom ma'noda o'z ichiga soliq siyosatini ham qamrab oladi. Biroq amaliyotda ko'pchilik hollarda, byudjet daromadlarini shakllantirishga qaratilgan siyosatni, odatda, soliq siyosati ³⁸va budget xarajatlarini sarflashga qaratilgan siyosatni esa byudjet siyosati, deb yuritiladi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi, bozor mexanizmini real holatda harakatlanishi ko'p jihatdan shu davlatda budget-soliq siyosatining qay daraja ekanligiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida budget-soliq mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosatini dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Davlatning budget siyosatini asosiy belgisi budget mablag'laridan samarali foydalanish orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish bo'lsa, soliq siyosatining asosiy belgisi bo'lib soliq yukining iste'molchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida optimal nisbatini belgilashdir. Byudjet - soliq siyosatining asosiy vositalari – davlat xarajatlari va soliqlar hisoblanadi. Batafsil ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagilar:

- soliq stavkasini o'zgartirish,
- soliq solish bazasini o'zgartirish,
- soliqlar turini o'zgartirish,
- soliqlar sonini o'zgartirish,
- davlat xarajatlari hajmini o'zgartirish,
- davlat xarajatlari yo'nalishini o'zgartirish.


Bu siyosatni mamlakatning qonun chiqaruvchi organi ishlab chiqadi. U soliq solishni va davlat byudjeti mablag'larini sarflashni nazorat qiladi.

Byudjetni boshqarish samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- ✓ daromadlarning yig'ilishi va byudjet majburiyatlarining bajarilish darajasi;
- ✓ defitsit hajmi va byudjet qarzlarning o'sish sur'ati;
- ✓ davlat qarzigacha xizmat qilish uchun ajratilgan moliya mablag'larining hajmi;

³⁸ Byudjet daromadlarining ma'lum bir kichik yoki sezilarsiz qismi soliqsiz daromadlar hisobidan shakllantirilayotganligi inobatga olingan taqdirda ham bu siyosatni o'zgacha atab bo'lmaydi. Chunki aynan soliqlar budget daromadlarining taqdirini belgilab berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- ✓ yalpi mahsulotning monetizatsiya darajasi; (pul massasining YAMMga nisbati);
- ✓ valyuta zahiralari hajmi va dinamikasi;
- ✓ YAMM va bandlik dinamikasi.



$$E=Y; E1=Y1; E2=Y2$$

$$E2=E1+\Delta E(\Delta G)$$

$$E1=C1+I1+G1+Xn1$$

$$\Delta E; \Delta Y$$

1-chizma. Davlat xarajatlari o'zgarishining mul'tiplikativ samarasi

Qisqa muddatli davrda byudjet-soliq siyosati davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet mul'tiplikatorlari samarasi ta'siri ostida bo'ladi.³⁹

$$\Delta G \uparrow \rightarrow \Delta E \uparrow (\Delta E \approx \Delta C) \rightarrow \uparrow \Delta Y (\Delta Y = \Delta C \times m)$$

Davlat xarajatlarining ΔG miqdorga o'sishi rejalashtirgan xarajatlarining ΔE miqdorda o'sishiga va umumiy xarajatlarning egri chiziq bo'yicha yuqoriga surilishiga olib keladi. Bu vaziyatda yalpi ishlab chiqarish hajmi (ΔY) miqdorida o'sadi.

Xarajatlardagi ozroq o'zgarish daromadlardagi undan ancha katta bo'lgan, o'zgarishni keltirib chiqaradi va $\Delta Y / \Delta E = 1 / (1 - b)$ bo'ladi (1-chizma).

$$\Delta Y = \Delta E \times (1 / (1 - b)) = \Delta E \times m$$

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantiruvchi fiskal siyosat - fiskal ekspansiya olib boriladi. YA'ni, davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining

³⁹ Ishmuhamedov A.E, Jumaev Z.A, Makroiqtisodiyot (maruzalar matni)

yuqori bo`lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o`shishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko`tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.

Iqtisodiyotda to`liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo`lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo`lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o`shishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo`shimcha turtki bo`lishi mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fiskal siyosatni yanada takomillashtirish, soliqlar va byudjet xarajatlaridan iqtisodiyotni barqaror o`stirishni rag`batlantirishning amaliy vositalari sifatida foydalanish borasida chora-tadbirlar belgilanayotganda bugun jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan va mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o`z ta`sirini o`shkazayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini hisobga olish zarur bo`ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o`zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o`z vaqtida boshlangan, chuqur o`ylangan va uzoq istiqbolga mo`ljallangan ishlar natijasida keyingi yillarda eksport sohasida katta yutuqlar qo`lga kiritildi. Investitsiyalar hajmining qisqarishiga yo`l qo`ymaslik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi shartlaridan biridir.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jahon xo`jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashgan bir sharoitda jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham sal`biy ta`sir ko`rstamoqda.

Bu ta`sir quyidagilar:

-jahon bozorida talabning pasayishi natijasida O'zbekiston eksport qiladigan mahsulotlarga talab va ularning narxi tushib ketishi(natijada eksport uchun ishlab chiqaruvchi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati yomonlashadi;

- mamlakatimizga investitsiya qilishi mumkin bo'lgan potensial xorijiy investorlar moliyaviy ahvoning yomonlashuvi natijasida xorijiy investitsiyalar miqdorining ehtimol tutilgan pasayishi.

“Dunyoning nufuzli ekspertlari tomonidan bildirilayotgan fikrlarga ko'ra, bu inqiroz joriy yilda va 2010 yilda ham davom etishi va ehtimol yanada chuqurlashishi kutilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, o'z-o'zidan ayonki, mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi”.

Dasturda belgilangan asosiy chora-tadbirlar yo'nalishlari quyidagilar:

1) eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash va barqaror ishlashini ta'minlash;

2) mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish;

3) iqtisodiyotning real sektori sohasidagi investitsion faollikning resurs bazasini kengaytirish va o'sishini ta'minlash;

4) elektr-energetika sohasini modernizatsiyalash, energiya sig'imini qisqartirish hamda energiya tejamorlik tizimini joriy etish;

5) kichik biznes rivojlanishini qo'llab quvvatlash, aholi bandliligi va yangi ish o'rinlari tashkil etishga ko'maklashishni kuchaytirish.

Eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab quvvatlash borasida quyidagi fiskal choralar ko'rilmogda:

-korxonalarining budjet, budjetdan tashqari fondlar, kommunal xo'jaligi oldidagi qarzlari bo'yicha penyalarni hisobdan o'chirish;

-ortiqcha to'langan qo'shimcha qiymat solig'i summasini korxonalariga qaytarish muddatini 10 kunga, ya'ni 30 kundan 20 kungacha qisqartirish;

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarishni maxalliyashtirish dasturini kengaytirish kata o'rin tutadi. Respublikamizda inqirozga qarshi dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3-4 barobar ko'paytirish mo'ljallangan.

Davlat byudjetni shakllantirishda quyidagi kontseptsiyalar mavjud:

I.Byudjet har yili balanslashtirilishi lozim degan g'oya. Yaqin paytlargacha moliya siyosatining maqsadi hisoblanar edi. Ammo bunda fiskal siyosatning samarasi pasayib ketadi. Masalan ishsizlik, krizis surunkali bo'lganda aholi daromadlari kamayadi, byudjet kirimlari kamaymasligi uchun esa soliqni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Bu esa yalpi talabni yanada pasaytiradi.

II. Davlat byujeti har yili emas, balki iqtisodiy tsikl davrida balanslashtirish lozim degan g'oyaga asoslanadi bunda tanazzulga qarshi kurash chorasi deb hukumat soliqlarini pasaytiradi. Xarajatlarni va byudjet defitsitini oshiradi, ko'tarilish davrida soliqlarni ko'taradi, davlat xarajatlarini kamaytiradi, byudjetni ijobiy sal'do bilan chiqaradi, bu tanazzul davridagi defitsitni qoplaydi. Ammo krizis uzoqroq, ko'tarilishi muddat jihatdan kamroq bo'lsa, defitsit qoplanmasligi mumkin.

Byudjet emas, iqtisodiyot balanslashtirilishi kerak, degan qoida moliyani asosiy vazifasi deb qabul qilingan. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik davrida byudjet ijobiy va barqaror sal'doga ega bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari suriladi. Iqtisodiy o'sish sharoitida avtomatik tarzda soliq ko'payadi va kamomad o'z-o'zidan yo'qoladi.

Byudjet - soliq siyosatining amalga oshirish usullariga turli xil qarashlar mavjud.

Keyns yo'nalishi tarafdorlari samarali yalpi talab yaratishga iqtisodiy rivojlanish stimuli deb, unga katta e'tiborni qaratadilar. Ular soliqlarni kamaytirish yalpi talabni o'stirishning asosiy omili, demakki, real ishlab chiqarish hajmini o'stirish omili deb hisoblaydilar. Shu bilan birga qisqa muddatda byudjetga tushumlar kamayadi, oqibatda byudjet defitsitligi tashkil topadi yoki uni ko'payishiga olib kelishini ham e'tirof etadilar.

«Taklif iqtisodiyoti» tarafdorlari soliq darajalarining pasayishi yalpi taklifni ko'paytiruvchi omil deb qaraydilar. Soliq og'irligining kamayishi daromadlar o'sishiga olib keladi:

- aholi daromadi, jamg'arma o'sishiga olib keladi;
- biznesni daromadi ko'payishiga, demakki investitsiyalarning foydaliligining o'sishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Абдуллаев, Ж. (2023, November). ОЦЕНКА И ОЦЕНИВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ В ВУЗАХ. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".

2.Abdullaev, A. J., & Raimova, D. D. (2023). TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF TRANSPORT. In Железнодорожный подвижной состав: проблемы, решения, перспективы (pp. 14-22).

3. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
4. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.
5. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
6. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.
7. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
8. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.
9. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
10. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
11. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).
12. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
13. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.
14. Kayimova, Z. A. (2023). Importance And Development Of Internet Marketing For Enterprises In The B2b Market. Studies In Economics And Education In The Modern World, 2(10).



15. Qayimova, Z. (2023). Инновации как фактор повышения эффективности предприятий в условиях цифровизации экономики. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 32(32).

16. Qayimova, Z. (2023). Theoretical Aspects of the Development of the Socio-Economic Infrastructure of the Country. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 27(27).